O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 28 - fevral 79-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Xovos tumani Farxod massivi “Obod turmush” MFY hududidan davlat va jamoat ehtiyoji uchun 100 o‘rinli umumta’lim maktabi qurish uchun tuman hokimligi zaxira yer fondidagi yerlardan doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi “Jahon bankining xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4898-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5 va 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10 va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasining 2022-yil 21-dekabrdagi 01/1966-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatning tegishli tashkilot, korxonalarining ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasiga Xovos tumani Farxod massivi “Obod turmush” MFY hududining tuman hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan ilovadagi chizmaga asosan 3050q-konturdan 100 o‘rinli umumta’lim maktabi qurish uchun 100 m x 55 m o‘lchamda

A1724235009/1 raqamli 0,55 gektar yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi (A.Xudayberdiyev)ga:

ajratilgan yer uchastkasida qurilishi rejalashtirilgan 100 o‘rinli umumta’lim maktabini qurish uchun belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda 100 o‘rinli umumta’lim maktabi qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **A.Mahmudaliev**